

**YOSHLAR O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI MUSTAHKAMLASH
YANGI O'ZBEKISTON TARAQIYOTINING MUHIM MASALASI**

Abdurasulova Qumrinisa Raimqulovna

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, professor,

prof.abdurasulova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7541287>

Ma'lumki, har qanday jamiyat, davlat yoki xalqning kelajagi yoshlar ta'lim-tarbiyasiga beriladigan e'tibor bilan uzviy bog'liq. Aholisining 54 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladigan O'zbekistonda ham yoshlarga munosib ta'lim va mehnat, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish sharoitlarini yaratish va yaxshilash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini mustahkamlash yoshlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor yoshlar, mehribonlik uylarida tarbiyalangan, yetim bolalar, boquvchisini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, yoshlar masalasi har doim davlatimiz rahbarining diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bu bejizga emas, chunki yoshlar ertangi kunimizning egalari, mamlakatimiz rivoji, uning ravnaqi bilimli, har tomonlama yetuk yoshlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli yoshlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini yanada kengroq muhofaza etilishiga nafaqat respublika, balki xalqaro darajada ham e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, 2017 yilda o'tkazilgan BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT minbaridan turib Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifini ilgari surgan va bunga asos qilib, bugungi kunda yoshlar soni ikki milliarddan oshgani, xalqaro terrorizm va esktremizm shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda ularga himoya zarurligini muhim omillar sifatida ko'rsatgan edi.

Davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga bosqich-bosqich joriy etilmoqda. Jumladan, yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash maqsadida ilgari surilgan «Beshta muhim tashabbus» doirasida o'tgan davr mobaynida 42 ta tuman (shahar)larning 168 ta olis va og'ir ahvoldagi mahallalarida ushbu tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ijtimoiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bor bo'lgan ishsiz yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida respublikadagi har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat kesimida «Yoshlar daftari» tizimi, yoshlar duch kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida «mahallabay» o'rganish tizimi joriy etildi.

Shu bilan birga, Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 27 yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bugungi kunda respublikada 18-30 yoshlilar orasida rasmiy ishsizlik 17 foiz ekani qayd etilib, yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangicha tizimni joriy etish bo'yicha ishlar ikkita muhim yo'nalishda: yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'qitish orqali ularning bandligini ta'minlash hamda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlangan va bu boradagi muammolarni manzilli hal etish uchun har bir tuman va shahar kesimidagi ustuvor vazifalar ko'rsatib o'tilgan, mas'ullar belgilangan edi.

Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar natijasida 2021 yilning birinchi choragida respublika bo'yicha "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 648 ming nafar ishsiz yoshlardan 283 mingining bandligi ta'minlanib, 175 ming nafar yoshga 45 ming gektar yer maydoni ajratilgan bo'lsa, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida 36 mingta qo'shimcha

to'garak tashkil etilib, 874 mingga yaqin o'g'il-qiz jalb etilgan. Prezident tomonidan ilgari surilgan "Besh muhim tashabbus" doirasida ta'lim muassasalari, kutubxona va o'quv markazlariga 97 mingta san'at va sport inventari, kompyuterlar, 562 mingta badiiy kitob yetkazib berilgan bo'lsa, yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida respublika bo'yicha 21 ta tumanda 2 mingdan 4,5 ming nafargacha yoshga dehqonchilik uchun yer ajratib berilgan.

Lekin, 2021 yilning 13 aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu borada bir qator o'z yechimini topmagan muammolar mavjudligi qayd etildi. Jumladan, respublikadagi ayrim hudud va sohalarida yoshlar masalalariga e'tibor hali ham talab darajasida emasligi, misol uchun, Andijon viloyatida ayni paytda hududdagi sanoat korxonalarini va klasterlarda 7 mingga doimiy vakant ish o'rni mavjud bo'lsa-da, 2021 yilning birinchi choragida atigi 5 mingga yaqin yosh doimiy ishga joylashtirilganligi, ishsiz yoshlarni kasb va tadbirkorlikka o'qitish, mablag' bilan ta'minlashda ham kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi, xususan, "1+1" dasturi doirasida 100 ming nafar yoshni o'qitib, keyin ularga imtiyozli kredit ajratish belgilangan bo'lsa-da, Savdo-sanoat palatasining quyi tuzilmalari bu ishlarni tizimli tashkil eta olmayotganligi, misol uchun, 2021 yilning dastlabki uch oyida respublika bo'yicha 21 ming nafar yosh tadbirkorlikka o'qitilganligi, Toshkent shahrida atigi mingga, Namanganda esa 1 100 ta sertifikat berilganligi, Buxoroda esa bor-yo'g'i 216 nafar yosh kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitilganligi ta'kidlanib, hududlarda ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash talab darajasida emasligi, masalan, Surxondaryo viloyatida bu ko'rsatkich respublikadagi eng past ko'rsatkichni – 30 foizni tashkil etishi, xuddi shu kabi Xo'jayli tumanida atigi 16 nafar, Furqat tumanida 27 nafar, Ulug'nor tumanida 78 nafar, Angor tumanida 82 nafar ishsiz yoshlar "1+1" loyihasi bilan qamrab olinganligi tanqid qilindi. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi ishlar talab darajasida emasligini, bugungi kunda "Barkamol avlod" bolalar markazlari bor-yo'g'i 175 ming nafar yoshlarni qamrab olganligini, Respublikadagi har bir mahalla va xonadonni sifatli tibbiy xizmatlar bilan qamrab olish uchun malakali o'rta bo'g'in tibbiyot xodimlarini ko'paytirish zarurligini, birgina tibbiy brigadalarga kamida 7 ming nafar o'rta tibbiyot xodimlari kerakligini ta'kidladilar. Shuningdek, har bir oliy o'quv yurti yon-atrofidagi mahallalar uchun ma'naviyat markazi, madaniyat o'chog'i bo'lishi kerak bo'lsa-da, bu borada rektorlarning o'rni umuman sezilmayotganligi, talabalarning yashash sharoitlari yetarli darajada emasligi, bugungi kunda 130 mingdan ziyod talaba ijarada yashayotganligi alohida ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda davlat rahbari tomonidan eng muhim vazifa, avvalo, yoshlar bandligini ta'minlash, munosib daromad olishi uchun ularga sharoit yaratib berish ekanligi qayd etilib, bu boradagi eng katta imkoniyat va zaxira bu – tadbirkorlik, ayniqsa, kichik va o'rta biznes ekanligi ta'kidlanib, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish va bandligini ta'minlash bo'yicha yangi mexanizmni joriy etish vazifasi qo'yildi. Unga ko'ra, endilikda respublikada quyidagicha tartib joriy etiladi:

2021 yil 1 maydan boshlab yoshlarni ishga qabul qilgan korxonalar va kompaniyalarga ushbu xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq qaytarib beriladi;

2021 yil 1 iyundan boshlab, "yoshlar daftari"ga kirgan talabalar korxonalar va kompaniyalarda amaliyot o'taganda, ularga 500 ming so'mgacha subsidiya ajratiladi;

birinchi marta ishga kirgan kasb-hunar markazi bitiruvchilari 6 oygacha daromad solig'i to'lashdan ozod etiladi;

"Yoshlar daftari"ga kirgan 5 nafardan ortiq ishsizlar bandligini ta'minlagan tadbirkorlarga 2021 yil 1 maydan boshlab davlat mulki ijarasi uchun 50 foizgacha imtiyoz beriladi;

ijaraga bino olib, o'z biznesini boshlayotgan yoshlarga, bir yillik ijara summasining 30 foizigacha qismi qoplab beriladi;

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yigitlar va mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilariga haydovchilik guvohnomasini olish, bir oylik harbiy xizmatni o‘tash xarajatlari byudjetdan to‘lab beriladi;

2021 yil 1 iyundan boshlab “yoshlar daftari”ga kirganlarning xorijiy tillar va umumta‘lim fanlari bo‘yicha nodavlat ta‘lim tashkilotlarida o‘qishi xarajatining bir qismi qoplab beriladi;

2021 yil 1 iyuldan boshlab xususiy korxonalarda yangi ish boshlagan xodimlarni qayta tayyorlash xarajatining 1 million so‘mgacha bo‘lgan qismiga subsidiya beriladi;

yoshlarning professional ta‘lim maktablari, texnikumlarda o‘qishi uchun to‘lanadigan kontrakt summasi daromad solig‘idan ozod qilinadi;

yer olgan yoshlar agrotexnik tadbirlarni bajarib, daromad ola boshlaguncha ularga fermer va klasterlar tomonidan amaliy yordam ko‘rsatiladi;

mazkur sohada aholini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “yoshlar daftari”ga kirganlarga urug‘lik va ko‘chatlar xaridi uchun 2 million so‘mgacha subsidiya beriladi;

har bir mahalla va xonadonni sifatli tibbiy xizmatlar bilan qamrab olish uchun malakali o‘rta bo‘g‘in tibbiyot xodimlarini ko‘paytirish maqsadida joriy yilda qo‘shimcha 20 minggacha o‘rta tibbiyot va ijtimoiy xodimlar shtatini tashkil etish hisobiga minglab yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratiladi;

“Barkamol avlod” bolalar markazlari imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, har bir maktabda ularning tarmoq filiallarini tashkil etish orqali qamrov oshiriladi;

yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida turli festival va musobaqalar o‘tkazib, yoshlarni sport, madaniyat va san‘atga qiziqtirish, nufuzli xalqaro tanlovlarga olib chiqish izchil davom ettiriladi;

ijarada turuvchi yoshlarga 2021 yil 1 maydan boshlab ijara to‘lovining yarmi davlat tomonidan qoplab beriladi. Dastlabki bosqichda ushbu tizim orqali 60 ming nafar yoshlar qamrab olinadi. Shu bilan birga, ehtiyojmand talabalarga ushbu xarajatlar hokimliklar va oliygohlar mablag‘i hisobidan ham qoplab beriladi.

Xulosa sifatida aytish joizki, mazkur yangi mexanizmning joriy etilishi, yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarga o‘qitish orqali ularning bandligini ta‘minlashga, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali esa yoshlarning madaniy-ma‘naviy saviyasini oshirishga, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini mustahkamlashga xizmat qiladi.